

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.D.Baxronov</b>	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'rni.....	201
<b>H.S.Ergashev</b>	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi .....	207
<b>I.T.Boltaboyev</b>	
Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'rni.....	212
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni.....	216
<b>U.X.Kolmatov</b>	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari.....	220
<b>F.B.Rahmonova</b>	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili .....	225
<b>J.Saburov</b>	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri ....	230
<b>B.A.Pulatov</b>	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari .....	236
<b>S.S.Evaton</b>	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi .....	245
SIYOSAT	
<b>Sh.Ismoilov</b>	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliш .....	249
<b>D.Sh.Mahkamov</b>	
Hakamlik sudi va davlat sndlari o'rtasidagi farqlar .....	252
<b>R.Nurimbetov</b>	
Shanaxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari .....	255
<b>B.X.Allamurodov</b>	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan) .....	258
<b>M.B.Nabiев</b>	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
<b>N.Madumarova</b>	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida .....	269
<b>A.A.Buriyev</b>	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'rni va bu boradagi xorijiy tajriba .....	273
<b>D.Mamadjonova</b>	
Siyosiy partiyaning faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari .....	277
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
TARIX	
<b>Бурхониддин Чалодиддин</b>	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
<b>M.T.Musaev</b>	
Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi .....	292
<b>R.A.Arslonzoda</b>	
Отражение литературной жизни Бухары в "воспоминаниях" Садриддина Айни .....	297



UO'K: 331.1

**KASABA UYUSHMALARI NOTIJORAT TASHKILOTLARNING ALOHIDA SHAKLI SIFATIDA****ПРОФСОЮЗЫ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ КАК ОТДЕЛЬНАЯ ФОРМА****TRADE UNIONS OF NON-PROFIT ORGANIZATIONS AS A SEPARATE FORM****Madumarova Nilufar** 

Huquq ta'limi kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Bu maqola kasaba uyushmalarining notijorat tashkilotining ma'lum bir qismi sifatidagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi fikrlar ilgari surilgan. Kasaba uyushmalari eng yirik jamoat birlashmalaridan biri hisoblanadi. Kasaba uyushmalari muayyan korxona, muassasa, tashkilotlarda ishlaydigan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar*

**Аннотация**

В данной статье рассматривается роль и значение профсоюзов как специфической части некоммерческой организации. Профсоюзы являются одними из крупнейших общественных объединений. Профсоюзы выражают и защищают социально-экономические права и законные интересы работников, работающих на отдельных предприятиях, учреждениях, организациях.

**Abstract**

*This article examines the role and importance of trade unions as a specific part of a non-profit organization. Trade unions are one of the largest public associations. Trade unions express and protect the socio-economic rights and legitimate interests of workers working at individual enterprises, institutions, and organizations.*

**Kalit so'zlar:** kasaba uyushmasi, notijorat tashkilot, ijtimoiy himoya, jamoat birlashmasi, kasaba uyushmalari federatsiyas, sex kasaba uyushmasi, konvensiya.

**Ключевые слова:** профсоюз, некоммерческая организация, социальная защита, общественное объединение, федерация профсоюзов, цех профсоюз, конвенция.

**Key words:** trade union, non-profit organization, social protection, public association, federation of trade unions, workshop trade union, convention.

**KIRISH**

Kasaba uyushmalari eng yirik jamoat birlashmalaridan biri hisoblanadi. Kasaba uyushmalari muayyan korxona, muassasa, tashkilotlarda ishlaydigan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar.

O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligiga muvofiq, kasaba uyushmasi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxona, tashkilot va muassasalarda mehnat qilayotgan xodimlarning ishlab chiqarish, kasbiy va ijtimoiy-iqtisodiy hamda mehnatga oid bo'lgan umumiyl manfaatlarini ifoda etuvchi va himoya qiluvchi, ixtiyorilik asosida tashkil etilgan o'zini-o'zi boshqaruvchi nodavlat notijorat jamoat birlashmasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 73-moddasida kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi belgilangan. Unga ko'ra, kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish ixtiyoriyidir.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA**

Kasaba uyushmalari o'z faoliyatlarini jamoatchilik birlashmalarida yuridik shaxs maqomida amalga oshirishlari mumkin, ularning ustavlari adliya organlarida ro'yxatga olinadi. Shuningdek, kasaba uyushmalari birlashmasi sifatida tashkil etilishi mumkin. Kasaba uyushmalarining birlashmasi – xodimlarning kasbiy, mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini amalga oshirish hamda himoya qilishda harakatlarning muvofiqlashtirilishiga va birligiga erishish maqsadida tarmoqqa doir, hududiy yoki kasbiy o'ziga xoslikni hisobga oluvchi boshqa belgi

bo'yicha tuziladigan ixtiyoriy birlashma. 2019-yil 6-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri imzolanishi kasaba uyushmalari hayotidagi eng muhim voqeа bo'ldi. Ushbu Qonun 2020-yil 1-martdan kuchga kirgan. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ishtirokida XMTning 4 ta konvensiyasi va 1 ta protokoli ratifikatsiya qilindi. Shuningdek, kasaba uyushmalarining faoliyatiga taalluqli bo'lgan qoidalar va huquqiy normalar 10 dan ortiq qonunlarda, jumladan 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida», 1993-yil 6-mayda qabul qilingan «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida», 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida», 2007-yil 3-yanvarda qabul qilingan «Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida», 2014-yil 29-sentabrda qabul qilingan «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida» va shu kabi boshqa qonunlarda, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 90 ga yaqin moddalarida, O'zbekiston kasaba uyushmalarining va tarmoq kasaba uyushmalarining Respublika Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan Ustavlarida, shuningdek tegishli qaror va nizomlarda aks ettirilgandir.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Kasaba uyushmalarining vakolatlari. Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, bo'linmalari va boshlang'ich kasaba uyushmalari xodimlar manfaatlarini himoya qilish imkonini beradigan keng ko'lAMDAGI huquqlarga ega.

Masalan:

aholi bandligini ta'minlash, ishdan ozod etilayotgan xodimlarni himoya qilish masalalarini, shuningdek xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etadi;

xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilib sudga da'vo arizasi, shuningdek sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qiladi;

xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

davlat bandlik dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, bandlikni ta'minlash, shu jumladan yangi ish o'rinalarini tashkil qilish va mavjudlarini saqlab qolish, tashkilotlarning faoliyatini yaxshilash, xodimlarning ommaviy ravishda ishdan ozod etilishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etadi;

davlat organlaridan, ularning mansabdor shaxslaridan, ish beruvchilardan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlari masalalari yuzasidan bepul axborot oladi;

ishlab chiqarishdagи baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini tekshirishda ishtirok etadi;

xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilgan hollarda ishlarni to'xtatib turish to'g'risida, shuningdek mehnatni muhofaza qilish talablarining buzilishlarini bartaraf etish haqida ish beruvchiga takliflar kiritadi;

mehnatni muhofaza qilishning holatini o'rGANADI, ish beruvchilarning jamoa shartnomalari va kelishuvlarida nazarda tutilgan mehnatni muhofaza qilishga doir majburiyatlarining bajarilishini nazorat qiladi;

davlat organlariga, ularning mansabdor shaxslariga, ish beruvchilarga, ularning birlashmalariga (ittifoqlariga, uyushmalariga) arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qiladi, ularga so'rovlar yuboradi.

Kasaba uyushmalarini moliyalashtirish. Kasaba uyushmalari o'z mulkiga egalik qilish, bankdan hisobvarag'i ochish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqlariga ega.

Quyidagilar kasaba uyushmalarining mol-mulkini shakllantirish manbalari bo'lishi mumkin:

a'zolik badallari;

- ixtiyoriy mulkiy badallar va xayriyalar;
- tadbirkorlik faoliyatidan tushgan tushumlar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

Kasaba uyushmalarining, ular birlashmalarining, bo'linmalaringa uyushmalari tashkilotlarining mol-mulkini shakllantirish manbalardan olingan mablag'lardan ularning ta'sis hujjatlarida belgilangan maqsadlarga erishish va vazifalarni hal etish uchun foydalaniadi. Kasaba uyushmalari Ustaviga muvofiq, kasaba uyushmalarining yuqori va saylanma organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari, nizomlar, dasturlar, tartib va qoidalar,

## SIYOSAT

yo'riqnomalar bilan kasaba uyushmalarining faoliyatiga tegishli bo'lgan munosabatlari tartibga solinadi.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga birlashgan kasaba uyushmalari Ustavining 4-bob, 4.3-bandiga hamda tarmoq kasaba uyushmalarining Ustavlariga asosan, boshlang'ich tashkilotda kasaba uyushma qo'mitasi va uning raisni, yoki

tashkilotchisini saylanishi tartibi ko'rsatilgan. Unga asosan:

- 30 nafargacha kasaba uyushmasi a'zosini birlashtirgan boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotida kasaba uyushma tashkilotchisi, uning o'rinnbosari, g'aznachisi 5 yil muddatga saylanadi.

- 30 va undan ortiq kasaba uyushma a'zolarini birlashtirgan boshlang'ich, sex kasaba uyushma tashkilotida – kasaba uyushma qo'mitasi, sex qo'mitasi va taftish komissiyasi (o'z mustaqil budjetiga ega bo'lgan sex kasaba uyushmasi tashkilotlarda) 5 yil muddatga saylanadi.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida 14 ta hududiy kelishuv, respublika miqyosida 107 ta tarmoq kelishuvi, korxona, tashkilot va muassasalarda 111,5 ming jamoa shartnomasi mavjud. Muhimi, 2016 – 2020 yillar davomida amaldagi tarmoq kelishuvlari soni 95 tadan 107 tagacha o'sdi. Tarmoq bo'yicha eng kam va o'rtacha ish haqi, ustamalar, kompensatsiya tarzidagi va rag'batlantiruvchi to'lovlar turlari va ularning eng kam miqdori, tarmoq tarif setkalari, yillik asosiy va qo'shimcha ta'tilning eng kam muddati kabi ko'rsatkichlar belgilandi. Kasaba uyushmalarining sa'y-harakatlari bilan kelishuvlarda ijtimoiy kafolat, sog'lioni muhofaza qilish, xodimlar va ularning oila a'zolarini, xususan, bolalarini sog'lomlashtirish masalalari ham o'z ifodasini topdi. Aksariyat tarmoqlarda uch yoshga to'lmagan farzandi bor ayollar uchun qisqartirilgan (bir haftada 36 soatdan oshmaydigan) ish vaqtini belgilandi. Amaldagi tarmoq kelishuvlarining 78 tasida qo'shimcha ta'til o'rnatilishiga erishildi.

Alovida qonun qabul qilish orqali 11-noyabrni O'zbekistonda «Kasaba uyushmalari kuni» sifatida belgilandi. Bu hozirgi kunda besh yarim milliondan ortiq kasaba uyushmasi a'zolarini ma'naviy jihatdan rag'batlantirish borasida unutilmas voqeasi bo'ldi.

So'nggi vaqtarda Kasaba uyushmalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalgalashish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakat aholisi turli qatlamlarining ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, bandligini ta'minlashda davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklik yanada faollandashgan. Masalan, aholi ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, turmush darajasini oshirish, kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga munosib hissa qo'shish maqsadida bevosita oilalar bilan muloqot asosida ularning muammolarini aniqlash, oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Natijada esa kasaba uyushmalari tomonidan bir qator hududlarda 2 milliondan ziyod oilaning turmush sharoiti atroflicha o'rganilib, ularning 556,5 mingdan ziyod muammolariga yechim topildi. Ayni chog'da xotin-qizlar muammolariga e'tiborni kuchaytirish, ular bandligi va ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq masalalarni hal etish maqsadida shu yil 7 martida ishga tushirilgan 1211 qisqa raqamli «Ishonch telefonini»ga kelib tushgan 50 mingdan ortiq murojaatlarning aksariyati ijobiy hal qilindi. Kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik, qulay mehnat sharoitini yaratish masalasi bo'yicha 16 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotlar faoliyati o'rganilib, 61 mingdan ziyod kamchilik aniqlandi, ish beruvchilarga salkam 10 mingta yaqin taqdimmoma kiritildi, ularning 92 foizida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar bartaraf etildi. 2016 – 2020 yillarda Federatsiya tizimidagi sanatoriylar va dam olish uylarida 600 mingdan ziyod fuqarolar sog'lomlashtirilgani, ulardan 44 foizi imtiyozli yo'llanma orqali sog'lig'ini tiklagani ham e'tiborga molik.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanida «Oq kema», Jizzax viloyatida «Zomin», Toshkent viloyatida «Anor», Qashqadaryo viloyatida «Ziyo chashmalari» zamonaliviy bolalar oromgohlari qurildi va mavjud o'rinnlar soni mingtadan ziyodga oshdi. Natijada har yili bolalar oromgohlari 350 ming nafardan ortiq bola dam olishi ta'minlanmoqda.<sup>15</sup>

**XULOSA**

Umuman, kasaba uyushmalari jamoat birlashmalari tizimida alovida o'ringa ega. O'zbekistonda a'zolari soni (706622 ta) eng ko'p bo'lgan o'nta nodavlat tashkilotlaridan biridir.<sup>16</sup>

<sup>15</sup> Xudoysukurov Z. O'zbekiston kasaba uyushmalari: yangilanish yo'lidagi dadil odimlar. Xalq so'zi. 2020 yil 11 noyabr.

<sup>16</sup> Nodavlat notijorat tashkilotlari raqamlarda. <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/89960/>

O'zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari tahliliga oid ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar hozircha yetarli emas. Huquqshunoslik, ijtimoiy va boshqa soha fanlari doirasida ushbu masala chuqur tahlil etilishi maqsadga muvofiqdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 5-son, 115-modda / <https://lex.uz/docs/11360>
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi Qonunni. 2019-yil 6-dekabr.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2007 y., 1-2-son, 2-modda; 2008 y., 51-son, 500-modda.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi.1997. –№2. –36-modda.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991. –№4, –76-modda.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 1999. –№5. –110-modda.
- 1.7. Akhrorkulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(10), 129-134.
- 1.8. Gulyamov, S., & Ahrorqulov, A. (2022). Notijorat tashkilotlar faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari: milliy va xorijiy tajriba. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1029-1041.
- 1.9. Ahrorqulov, A. (2022). Notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish masalalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 893-902.
- 1.10. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. *Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19)*, 1(02), 23-26.
- 1.11. Mamajonova, D. (2022). Konstitutsiyaviy islohotlar-xalq manfaatining asosiy mezoni. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.